

*Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at fakulteti Tasviriy san'at va musiqa ta'limi kafedrası 301 guruh talabasi*

***Ortiqova Zuhra Bahromjon qizi***

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada *Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari* va uning o'ziga xos jihatlari haqida sz yuritiladi. Katta ashula patnusaki ashula deb ham yuritiluvchi katta ashula san'at yo'nalishi to'g'risida batafsil ma'lumot keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan asosiy masalalardan biri ham kelajak avlodning kamolotida, ta'lim-tarbiya berishning maqsadi yosh avlodni istiqloq mafkurasi asosida sog'lom, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash va musiqa ta'limiga tayyorlashdan iborat ekanligi e'tirof etilgan. Xalqimizning milliy-ma'naviy merosini musiqa san'atisiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbek xalq mumtoz musiqa ijodiyoti xalqimiz ma'naviy merosining negizlaridan hisoblanadi. Moddiy-ma'naviy boyliklar asosida yuzaga kelgan ulkan merosning zaminida xalqimizning milliy an'analari, qadriyatlari mujassam topgan.

Katta ashula, ushbu san'at yo'nalishi patnusaki (patnis) ashula deb ham yuritiladi. Farg'ona vodiysiga xos bo'lgan o'zbek an'anaviy ashula uslubi, ijro yo'li Farg'ona-Toshkent maqom yo'llariga uslubiga xosdir. Katta ashula Farg'ona vodiysida shuningdek Toshkentda va Qozog'istonning Chimkent viloyatlarida ham ijro etiladi. Ushbu ijro uslubi - katta ashulani 2, 3, 4, 5, ashulachi hofizlar tomonidan hamnafas bo'lib cholg'u jo'rligisiz qo'llariga likobcha yoki patnis ushlagan holda aytiladi. Ushbu ashulalar avji yuqori pardalarda kuylanadi va keng nafasda ijro etiladi. Ushbu ashulalar o'ziga xos murakkab ijro uslubi bilan ajralib turadi. Katta ashula xalq og'zaki ijodining durdonalari hisoblanadi. Juda qadim zamonlardan ijro etilib kelgan marosim qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari, marsiya va mavsumiy qo'shiqlari asosida kuylanib ustoz san'atkorlar va

bastakorlarning uslubi, ijro maktablari asosida rivojlanib sayqallanib mukammal holda bizni davrimizga yetib kelgan. Dastlab ushbu katta ashulalar aruz vaznidagi gʻazallar bilan ijro etilgan. Ushbu asarni ijro etish uchun ijrochini diapazoni, ovoz jarangdorligi ochiq ovozda katta avj pardalarda kuylashi alohida ahamiyatga ega. Katta ashula barcha ijrochilar tomonidan boshlanadi. Oʻrta va daromad boʻlimlari boʻlib-boʻlib ijro etiladi. Avj qismi ovozi jarangdor Iya, si, do kabi notalarga yetuvchi ijrochi tomonidan ijro etiladi.

Katta ashula ijrochiligida kuylovchi hofizlar badiha uslubidan keng foydalaniladi. Bu esa undagi nutqdosh va ohangdor tuzilmalar, ashulani rang-barang musiqa bezaklari bilan boyitadi, turli avjlar qoʻllanishiga olib keladi. Katta ashula ijrochisi anʼanaviy "ustoz-shogirt" maktabini oʻtgan, sheʼriyat qonunlari va ijrochilik anʼanalariga tayangan, keng diapazonli, baland ovozga va mahoratga ega boʻlishi lozim. Hofizlar, odatda, sheʼr bandidagi boshlangʻich misralarning har birini galma-gal, soʻnggi misralarni joʻr boʻlib ijro etiladilar. 20-asrning 2-yarmida Katta ashulaning yangi ashula-cholgʻu yoʻllari, yakkaxon hofizga moʻljallangan turlari yuzaga keldi.

Katta ashulaning kompozitsion tuzilishi toʻrt tarkibiy qismdan iborat.

1. Daromad (boshlangʻich kuy tuzilmasi)
2. Oʻrta avj (oʻrta kuy tuzilmasi)
3. Avj (baland parda kuy tuzilmasi) va furovard (daromadga qaytish)
4. Daromad-avj-furovard

Hofizlar odatda sheʼr baytidan boshlangʻich birinchi-uchinchi misralarning bir-birini navbatma-navbat ijro etadilar. Boshlovchi birinchi misra bilan reja tashlasa, ikkinchi hofiz (agar ikki ijrochidan iborat boʻlsa), shu misrani takrorlaydi. Lekin kuy harakatiga 4 ayrim oʻzgarishlar (variantlar) kiritadi. Keyingi misra bir parda balandroq, ikkala ijrochi tomonidan yana navbatma-navbat aytiladi. Avj qismi ham shunday uslubda yuqori pardalarda ijro etiladi. Har bir band (bayt)ning oxirgi misrasini tushirganda, goh misra boshidan, yoki misraning yarmidan ashula nihoyasiga yetkazilganda ikkala hofiz birga (unison tarzida) kuylab, ashula daromadini boshlovchi tashlab bergan reja darajasiga tushiriladi.

Har bir kuplet shu asosda aytiladi. Navbatma-navbat ijro etish usuli hofizlarga ashulaning har qismi, ayniqsa, avj oldidan nafasni rostlab olishga, Baland pardalarga qiynalmay chiqa olishga hamda yuqori avjga tayyorlanishga yordam beradi. Mohir hofiz avjini yuqori pardalarda, baland ovoz bilan ijro etishda hamnafasining ovoz imkoniyatlarini hisobga olishi kerak. Mahorat bilan ijro etilgan avj o'zining ta'sirchanligi bilan ajralib turadi.

Ba'zi katta ashulalar o'rta avj yoki katta (baland) avjdan ham boshlanishi mumkin. Bu holda ashula kuyi yuqori registrga qarab tushib boradi. Katta ashula kuylari rechitativ-kuychang tarzda bo'lib, uning kuy harakati bosqichma-bosqich, to'liqsimon holda rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Sakramalar, peshrav yurishlar kuy tuzilmasida ham qo'llanadi. Erkin ritmik uslubda ijro etilgan katta ashulalarda kuy tuzilmasi bir nafasda, misra shaklida aytiladi. Shu tufayli katta ashula nota misollaridan o'lchov ishlatilmaydi. Katta ashula ma'lum bir ohang yoki kuy bilan boshlanadi (bu asosiy kuy mavzusi) va bu kuy ashula davomida bir necha variantlarda ijro etiladi. Katta ashulaning shakllanishida "oxang" (xonish, hirgoyi)lar juda katta ahamiyatga ega. Ular katta ashula kuyini kuychang holatga olib keladi. Katta ashulaning xususiyatlaridan yana biri- bu janr ijrochiligida badihago'ylikdan keng foydalanishdir. Bu esa undagi rechitativ va ohangdorlikning bog'lanishi ta'minlaydi, shularni rang-barang musiqa bezaklari va ichki qonuniyatlari bilan boyitadi. Cholg'usiz aytish katta ashulalarda ijro vaqtida badihago'ylik qilishga katta yordam beradi, shuning uchun ham ikki kishi aytgan katta ashula kuy tuzilishi va xarakteri, ritm va naqsh bezaklari (nola, qochirim) bilan ajralib turadi.

Bundan tashqari, katta yig'inlarda, to'y-tomoshalarda, mehmondorchiliklarda aytilishi tufayli ham ularga "katta ashula" nomi berilgan bo'lishi mumkin. Katta ashula ijrochidan zo'r qobiliyat va mahorat, shuningdek, so'z bo'g'inlariga e'tibor qilishni, she'rning ma'nosini va so'zlarini dona-dona talaffuz qilib, tinglovchilarga yetkazishni talab qiladi. Katta ashula janrining asosiy xususiyatlar:

1. Bir vohada shakllanib, rivoj olishi (Farg'ona vodiysida);

2. O‘ziga xos ijro uslubi-ikki (yoki uch-besh) xonandalar tomonidan cholg‘u jo‘rligisiz, galma-gal aytilishi;
3. Badihago‘ylik (har bir xonanda ijrosida);
4. So‘z va kuy mutanosibliği;
5. Professionallik mahorat va qobiliyat mavjudligi (ijrochi professionallik talablarga javob berishi lozim);
6. So‘z matnida noshe'riy non va iboralardan (yor, voyey, jon, adomaney) keng foydalanish (ayniqsa, avj qismida);
7. Ta'sirchanlik;
8. Hamnafaslik (ovoz diapazoni, kuchi, balandligi, tembri, uslubi xonandalarda bir-biriga mos tushishi zarur);
9. Erkin talqin etish;
10. Ijro an'analariga bo‘ysunish va rioya qilish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Rustam Mamatqulov "Katta ashula ijro etgan ustozlar maktabidan namunalar" (Farg‘ona vodiysi misolida) O‘quv qo‘llanma, Andijon 2019 "Xayot" nashriyoti 50 bet
2. G‘ofurjon Yusupovich Yunusov. Katta ashula O‘zbekiston davlat san'at va madaniyat Institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali 2022.